

XORAZM VOHASINING TUPROQ-EKOLOGIK SHAROITI VA UNGA TASIR QILUVCHI OMILLAR

Xojoyzova D.SH., Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, 2-kurs geografiya yo'nalishi talabasi, O'zbekiston

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, студентка 2 курса география, Узбекистан

Xo'joyzova D.SH., 2nd year geography student of Urganch State University named after Abu Rayhan Beruni, Uzbekistan

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm vohasi tuproqlarining ekologik holati, unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, unumdorligiga eroziya jarayonlarining tahsiri hamda ularga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar bayon etilgan. Shuningdek, voha yer resurslarining unumdorligini oshirish, bo'yicha kompleks tadbirlarni rivojlantirish, meliorativ-ekologik holatini yaxshilash va sho'rlanish jarayonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: voha tuproqlari, eroziya jarayonlari, tuproq unumdorligi, tuproq sho'rlanishi, yog'in miqdori, deflyatsiya, ekologik muammolar, antropogen omillar.

ПОЧВЕННО-ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА И ФАКТОРЫ ВЛИЯНИЯ

Абстрактный. В статье описывается экологическое состояние почв Хорезмского оазиса, происходящие в них изменения, влияние эрозийных процессов на их плодородие и меры борьбы с ними. Также обсуждались вопросы разработки комплексных мероприятий по повышению продуктивности земельных ресурсов оазисов, улучшению мелиоративного и экологического состояния земель, анализу процессов засоления.

Ключевые слова: оазисные почвы, эрозийные процессы, плодородие почв, засоление почв, осадки, дефляция, экологические проблемы, антропогенные факторы.

SOIL AND ECOLOGICAL CONDITIONS OF THE KHOREZM

OASIS AND INFLUENCER FACTORS

Abstract. This article describes the ecological state of the soils of the Khorezm oasis, the changes taking place in it, the impact of erosion processes on their productivity, and measures to combat them. It also analyzes the development of comprehensive measures to increase the productivity of oasis land resources, improve the melioration and ecological state, and the processes of salinization.

Key words: oasis soils, erosion processes, soil fertility, soil salinity, precipitation, deflation, environmental problems, anthropogenic factors.

Kirish. Mamlakatimiz tomonidan olib borilayotgan qishloq xo'jalik sohalaridagi bir qator islohotlar va chora – tadbirlar ham sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishga, tuproq unumdorligi va qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirishga qaratib kelinmoqda. Shu bilan birga mavjud sug'orish inshootlaridan unumli foydalanish, o'zlashtirilayotgan yerlarni landshaft xususiyatlariga e'tibor berish, almashlab ekish tizimini rivojlantirish, yerning imkoniyatlarini to'g'ri hisobga olish, melioratsiya hamda agrotexnikani ilmiy asoslangan holda qo'llash, kelajakda sug'oriladigan yerlar unumdorligini oshirish lozimligi ta'kidlab kelinmoqda.

Xorazm vohasi O'zbekistonning boshqa hududlaridan tabiiy sharoiti va geotizimlarining kenglik bo'ylab mintaqalanishiga mos holda o'zgarishi natijasida landshaft majmualarining xilma – xil bo'lishi bilan ajralib turadi. SHu bilan birga voha hududi qadimdan obikor dexqonchilik yaxshi rivojlangan va tabiati inson xo'jalik faoliyati tufayli kuchli o'zlashtirilganligi bilan xarakterlidir. Aholisi zich joylashgan, tabiiy landshaft komplekslari antropogen omil tahsirida yuqori darajada transformatsiyalashgan mintaqa sifatida boshqa hududlardan yaqqol ajralib turadigan vohaning barcha landshaft komplekslarida qishloq xo'jaligining agroiqtisodiyot va turli sanoat tarmoqlari hamda rekreatsiya tizimlarini rivojlantirish uchun qulay tabiiy geografik sharoit va landshaft komplekslari mavjuddir.

Ishning maqsad va vazifalari. Jahonning ilg'or mamlakatlarida dehqonchilik qilinadigan yerlarga antropogen tasir darajasini aniqlash bo'yicha qator ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan rus olimlari tomonidan yer va tuproqlarning ifloslanishi va degradatsiyasiga bog'liq holda atrof – muhitga keltirilgan zararlarni baholash metodikasi takomillashtirilgan

tadqiqotlaridan foydalanib, Xorazm vohasi tuproq-ekologik sharoiti va unumdorligiga eroziya jarayonlarining tahsirini tadqiq etish hamda bu boradagi samarali tajribalarni o'rganish tadqiqot ishining maqsadi sifatida belgilandi. Vohaning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanib borishida tabiiy komponentlarning tasirini aniqlash, Xorazm vohasi tuproq – ekologik holatini o'rganish, tuproq unumdorligiga tasir etayotgan tabiiy va antropogen jarayonlarni ochib berish tadqiqot ishining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Asosiy qism. Xorazm vohasida sug'orma dehqonchilikning tarixi uzoq davrni o'z ichiga olib, o'tgan vaqtlar davomida tuproq qoplamida sezilarli o'zgarishlar vujudga kelgan, tuproq hosil bo'lish jarayoni avtomorf rejimdan yarim gidromorf tuproq hosil bo'lish tomoniga o'tgan. Unga ko'ra vohaning tuproqlari o'ziga xos morfolitogenetik tuzilishga ega ekanligi hamda agrokimyoviy, agrofizikaviy va meliorativ xossa va xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Vohaning katta qismida yillik yog'in miqdori kam 80 – 90 mm atrofida. Nisbiy namlik miqdori ancha past, harorat nisbatan issiq va quruq bo'lib, bahor va kuzda haroratni isib ketishi natijasida havo bosimi pasayadi. Yilning ayni shu davrida shimoliy garbiy shamollar esadi, shamolning tezligi 20 – 25 m\sek ga yetadi. SHuning uchun vohada shamol eroziyasi kuchli rivojlangan.

Vohaning katta maydonida och tusli va sur – qo'ng'ir tuproqlar hamda o'tlar bilan mustahkamlangan qumli cho'l tuproqlari tarkib topgan bo'lib, bunday tuproqlar asosan Qo'shko'pir, SHovot, Yangiariq, Bog'ot, Xazorasp tumanlari hududida katta maydonlarni egallaydi. Bu tuproq tiplarining mexanik tarkibi suv o'tkazuvchan bo'lib, yerning yuza qismida suv to'planmaydi va yuvilib ketishi ancha sust. Yuvilib ketmasligini yana bir sababi relyefi tekislikdan iborat. Lekin, shamol bu tuproqlarni oson changitib, uchirib keta oladi, shu sababli xam bunday hududlarda tuproq eroziyalari yaqqol ko'zga tashlanadi. Eroziyaning oldini olish bo'yicha tashkil etilgan ihotazor va daraxtzorlar maydonining keskin qisqarib borishi eroziya rivojlanishiga keng yo'l ochib bermoqda [3].

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanuvchilar tomonidan organik o'g'itlardan keng foydalanish bo'yicha kompleks tadbirlarni yetarli darajada amalga oshirilmaganligi natijasida, so'ngi 30 yilda sug'oriladigan tuproqlarda gumus miqdori 10–15 foizga kamayib ketgan, oqibatda ekvivalent hisobida boy berilgan sug'oriladigan ekin yerlari 150 ming gektardan oshib ketmoqda. Xududda tuproq eroziyasi va uning keltirib chiqaruvchi omillar, ayniqsa, antropogen omil,

sug'oriladigan tuproqlar va ularning eroziya tiplariga chidamlilik darajasi, sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishda eroziya xavfi, eroziyaning tobora kuchayib borayotganligi kabi masalalar hanuz amaliy jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan [1].

Xorazm vohasida joylashgan tumanlarning qishloq xo'jalik ekinlari yetishtiriladigan maydonlarida vujudga kelayotgan shamol eroziyasi noxush ekologik muammolardan sanaladi. Bunday jarayonlarni oldini olishga qaratilgan tadbirlar esa juda sust olib borilmoqda yoki oldindan mavjud bo'lgan daraxtzorlar, ihotazorlar maydoni esa yildan – yilga qisqarib bormoqda, ayrim joylarda esa butunlay yo'qolib ketmoqda. Bunday holatni kelib chiqish sabablarini bevosita vohada aholi sonini yildan – yilga ortib borishi bilan bog'liqdir .

Aholi tomonidan sug'oriladigan yerlarda dehqonchilik, yaylov va o'tloqlarda esa chorvachilikni rivojlantirilishi, qishloq xo'jaligi yerlaridan ham turli maqsadlarda foydalanilishi oqibatida haydaladigan yerlarning litologik – geomorfologik, tuproqning mexanik tarkibi, suv va havo rejimi, fizik, agrokimyoviy va kimyoviy – biologik xossalarning ham o'zgartiradi [2]. SHuningdek, vohaning ayrim hududlarida minerallasgan grunt suvlari yer yuzasiga yaqin yotgan joylarda o'rtacha va kuchli parchalangan sug'oriladigan o'tloq, botqoq – o'tloq va botqoq tuproqlar hamda sho'rxoklar yaxshi rivojlangan.

Xorazm vohasining barcha qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanuvchilar tomonidan tuproq unumdorligini oshirish, ayniqsa organik o'g'itlardan keng foydalanish bo'yicha kompleks tadbirlarni ishlab chiqish hamda tuproqlar degradatsiyasini aniqlash, baholash, monitoring qilish va salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Unga ko'ra, vohada bunday noxush ekologik holatlarni oldini olish maqsadida bir qator chora – tadbirlarni amalga oshirish lozim, jumladan:

- ❖ eroziyaga uchragan tuproqlar tarqalgan maydonlarda tabaqalashtirilgan usulda organik va mineral o'g'itlar qo'llash va yerlarga ishlov berish texnikasini takomillashtirish;

- ❖ qishloq xo'jalik ekinlarini joylashish xususiyatlarini qayta ko'rib chiqish, tuproq tiplariga moslashtirish va unda meva – sabzavotchilik tarmoqlariga keng o'rin berish;

- ❖ tuproqlar qoplamini himoya qilish uchun yopishqoq o'tlar masalan, ajriq va boshqa yem – xashak bo'ladigan o'tlarni ekish kabilardir.



Xorazm vohasida shakllangan sug'oriladigan cho'l – voha tuproqlarining unumdorligini saqlash va oshirish borasidagi izlanishlardan oldin, bu yerlarning sho'rlanish holati va uni yaxshilashni birinchi navbatda amalga oshirish lozim.

Xulosa. Xorazm vohasida olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, arid hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmay yerlarni o'zlashtirilishi katta maydonlarda tuproqlar qatlamini yuvilishi, eroziya hodisalarining turli ko'rinishlari, yer osti suvlari sathining ko'tarilishi, sho'rtob va sho'rxoklanish kabi jarayonlarni vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Binobarin, arid hududlarni o'zlashtirish, yer va suvdan foydalanishda ilm – fan, texnikaning eng so'nggi yutuqlariga hamda inson xo'jalik faoliyatining ijobiy ta'siriga tayanish lozim. Buning uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- ❖ qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanuvchilar tomonidan organik o'g'itlardan keng foydalanish bo'yicha tadbirlarni yetarli darajada amalga oshirishni yo'lga qo'yish zarur;

- ❖ Voha tuproqlari mexanik tarkibi qum va chang zarrachalardan iborat bo'lganligi tufayli shamol eroziyasiga moyilligi, sug'orma dehqonchilikda bu yerlar deflyatsiyaga qarshi kurash va muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotda tadbir etish muhim ahamiyatga ega;

- ❖ sug'orish jarayonida Xorazm vohasi tuproqlarida yer osti suvlarining sathi ko'tarilib bu jarayon tuproqlarni turli darajada sho'rlantirmokda. Shuning bu yerlarda vertikal va gorizontaal zovurlar tizimini to'g'ri loyihalash, mavjud irrigatsiya va melioratsiya tizimini qayta tiklash kabilarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nabieva G., Madrimov R. Xorazm viloyati tuproqlari shakllanishining tarixiy aspektlari, «Upravlenie zemelnqmi resursami i ix otsenka: novqe podxodq i innovatsionnqe resheniya» Materiali Rossiyo-Uzbekskoy nauchno-prakticheskoy konferensii. Moskva-Toshkent-2019. 397-402 b.

2. Raximov X. N. Xorazm vohasi sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarining hozirgi holati va ulardan foydalanish, science and innovation international scientific journal volume 1 issue 6. 2022. 320-324 b.

3. Dusanova Sh. Xorazm vohasi tuproqlarining hozirgi holati va ulardan foydalanish . Respublika ilmiy-amaliy anjuman . Urganch 2023.136 b.